

Autsorsing shartlari asosida kir yuvishni tashkil etish uchun

ShARTNOMA 1

Toshkent shaxri

2022 yil « 19 » *oktyabr*

Keyingi o'rinlarda Buyurtmachi deb ataluvchi Nurafshon shaxar tibbiyot birlashmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi bosh shifokor M.M.Peltabayeva bir tomondan va keyingi o'rinlarda Autsorser deb ataluvchi "CONVENIENT FOR GUESTS" MCHJ nomidan Ustav (ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi direktori MAHAMMATQULOV J. H ikkinchi tomondan, keyinchalik Tomonlar deb ataladi, ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

I. Shartnoma predmeti

1.1. Autsorser Buyurtmachining topshirig'i bo'yicha mazkur Shartnomaning 1.2-bandida qayd etilgan xizmatlarni ko'rsatish, Buyurtmachi esa — ushbu xizmatlar uchun pul to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Autsorser mazkur Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatdan boshlab u tugaguniga qadar har kuni shifoxonada davolangan bemorlarni belgilangan me'yorlar hamda O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etgan holda Buyurtmachi bilan kelishilgan kir yuvish (Yostiqlik jildlari, choyshablar)ni yuvish, choyshablar bilan ta'minlash majburiyatini (keyingi o'rinlarda Xizmatlar deb ataladi) o'z zimmasiga oladi.

1.3. Xizmat ko'rsatish muddati: 2022 yil « 19 » *oktyabr* dan 2022 yil «31» dekabrgacha.

1.4. Tomonlar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va Autsorser tomonidan amalda ko'rsatilgan Xizmatlar uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hisob-fakturani imzolaganidan hamda Buyurtmachi tomonidan Autsorserning mazkur Shartnomada ko'rsatilgan bank hisobraqamiga pul mablag'lari o'tkazilgandan so'ng Xizmatlar ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

II. Tomonlarning huquqlari va majburiyatlari

2.1. Autsorser quyidagilarga majbur:

2.1.1. Choyshablarni sifatli yuvish bo'yicha sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining kirxonalar xizmatini tashkil etishga taalluqli qismlaridagi talablarga to'liq mos keladigan Xizmatlar ko'rsatish.

2.1.2. Xizmatdan foydalanuvchilarga sifatli xizmat tashkil etishda tegishli sertifikatlar bilan tasdiqlangan mahsulotlari (yuvish vositalari)dan foydalanish.

2.1.3. O'zining omborida saqlanayotgan va qabul qilib olgan choyshablarni zaxiralarini yangilab turish, va choyshablarni qabul qilib olingan sanadan boshlab kamida xar 6 oyda bir marotaba yangilash.

2.1.4. Autsorser tomonidan sifatli va yangi yuvish vositalarini xarid qilish.

2.1.5. Xizmatlarni mazkur Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatda va to'liq hajmda ko'rsatish.

2.1.6. Xizmatlar ko'rsatish jarayonida Autsorser mazkur Shartnoma shartlariga amal qilmasdan, choyshablarni sifatli yuvilishini yomonlashuviga olib kelgan barcha kamchiliklarni Buyurtmachining talabi bo'yicha bir ish kuni davomida bepul bartaraf etish.

2.1.7. Xizmatni bajarish jarayonida faqat belgilangan tartibda tibbiy tekshiruvdan (ko'rikdan) o'tgan xodimlarga ruxsat etish.

2.1.8. Xodimlar zimmasiga Buyurtmachining hududida odob-axloq qoidalari, shuningdek, ichki kun tartibiga rioya qilish majburiyatini yuklash.

2.1.9. Xizmatlarni bevosita ko'rsatish.

2.1.10. Xizmatlar narxini oshirmagan holda shaxsiy mablag'lari hisobidan:

solliqlar to'lash;

belgilangan tartibda u bilan mehnat shartnomasi tuzgan xodimlar mehnatiga haq to'lash;

yuvish vositalarini xarid qilish;

Xizmatlarni xizmat jayidan, (bo'limlar)ga joyigacha yetkazish;

Kir yuvish mashinalari, dazmollar va boshqa jihozlarni soz holatda saqlash, ta'mirlash, qayta to'ldirish;

ijaraga olingan bino, xona, mebel, inventar va boshqalarni zarur holatda saqlash va joriy ta'mirlash.

2.1.11. Tomonlar imzolaydigan tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va alohida ijara shartnomasini rasmiylashtirgan holda Buyurtmachidan kir yuvish xonalari, jihozlar va kirxona mebelini qabul qilib olish.

2.1.12. Mazkur Shartnomani bekor qilish haqida Buyurtmachini bir oy oldin yozma ravishda ogohlantirish, ushbu muddat tugaguniga qadar esa Buyurtmachi xizmatlarni uzluksiz tashkil etishni ta'minlash.

2.2. Buyurtmachi quyidagilarga majbur:

2.2.1. Bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi narxlar bo'yicha bir oyda kamida bir marta Xizmatlar haqini to'lash.

2.2.2. Outsorserga shaxsiy tarkibning xizmatlarini tashkil etish uchun ijara shartnomasi doirasida «nol» stavkasi bo'yicha kirxonaning kir yuvish xonalari, jihozlari va mebel anjomlarini vaqtincha foydalanishga berish.

2.2.3. Tomonlar imzolaydigan tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va alohida ijara shartnomasini rasmiylashtirgan holda Outsorserga kirxonada yuvish, chayish xonalari, jihozlari va mebelini topshirish.

2.2.4. Mazkur Shartnomani bekor qilish haqida Outsorserni bir oy oldin yozma ravishda ogohlantirish.

2.3. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

2.3.1. Outsorserning faoliyatiga aralashmagan holda bajarilayotgan ishlarning yuritilishi va sifatini istalgan vaqtda tekshirish.

2.3.2. Buyurtmachi Shartnomani bajarishni rad etishi to'g'risidagi xabarnomani olguniga qadar Outsorserga ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatini belgilangan tartibda to'lab, istalgan vaqtda Shartnomani bajarishdan bosh tortish.

III. Shartnomaning narxi va o'zaro hisob-kitoblar tartibi

3.1. Mazkur Shartnomaning narxi 1-ilovaga muvofiq narxi:

| No | Mahsulotlar nomi | o'lchov birligi | soni | narxi | so'mmasi |
|------|--------------------|-----------------|------|-------|-------------------|
| 1 | Kir yuvish xizmati | kg | 6000 | 5835 | 35 010 000 |
| JAMI | | | | | 35 010 000 |

35 010 000 (O'ttiz besh million o'n ming)so'm _____ (so'mma son va so'z bilan)
so'mni tashkil etadi.

3.2. Outsorserga oldindan 30 foiz miqdoridagi to'lov 5 bank kuni ichida o'tkaziladi.

3.3. Outsorser tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'zaro hisob-kitoblar bajarilgan ishlarining yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlarning amaldagi qiymati bo'yicha 70 foiz miqdorida haqiqatda ko'rsatilgan xizmatlar summasidan kelib chiqib o'n kunda kamida bir marta amalga oshiriladi.

3.3.1. 1kg kir yuvish uchun ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi narxi Outsorser yetkazib beruvchidan xarid qilgan va tegishli me'yorlar bo'yicha tasdiqlangan narxlardagi mahsulotlarga qarab narx chiqariladi

3.3.2. Buyurtmachi tomonidan amaldagi soni haqidagi ma'lumotlar va xar bir kg kir uchun ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi narxi asosida Buyurtmachi kundalik talabiga uvofiq Outsorser bilan birgalikda har o'n kunda to'lanishi lozim bo'lgan summani ko'rsatgan holda bajarilgan ishlarining yig'ma dalolatnomasini tuzadi va hisob-fakturani rasmiylashtiradi hamda ular Outsorser rahbari va shifoxona bosh shifokori tomonidan imzolanadi.

3.3.3. Buyurtmachi tomonidan amalda ko'rsatilgan xizmatlar narxi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-faktura olingan vaqtdan boshlab 10 bank kuni davomida Shartnomada belgilangan summadan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lanadi.

3.3.4. Mazkur Shartnomaga 2-ilovada ko'rsatilgan Shartnoma prognoz summasini hisoblash uchun xizmatlarning narxlari o'zgarganda yoki boshqa asosli holatlarda Tomonlardan birining tashabbusi bilan bir oyda bir marta qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

IV. Tomonlarning majburiyatlari

4.1. Outsorser Buyurtmachi shaxsiy tarkibining xizmatlarini tashkil etishi bo'yicha Shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmagan holatlarda Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi. Bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar oylik qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

4.2. Penya (jarima) to'lash Tomonlarni zimmasidagi majburiyatlarini bajarishdan yoki buzilishlarni bartaraf etishdan ozod qilmaydi.

4.3. Mazkur Shartnoma shartlarining bajarilmagani yoki tegishli darajada bajarilmagani uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladilar.

4.4. Tomonlarning Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

V. Munozarali vaziyatlarni hal etish tartibi

5.1. Mazkur Shartnomani bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar imkon qadar Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etiladi.

5.2. Nizolar va kelishmovchiliklarni Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etish mumkin bo'lmaydigan holatlarda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan kelishmovchiliklarni suddan oldin bartaraf etish tartib-taomili amalga oshirilgandan so'ng ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ko'rib chiqish uchun sudga beriladi.

VI. Fors-major holatlar

6.1. Tomonlar majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar bunday holat yengib bo'lmas kuch, ya'ni tabiiy ofaatlar, tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda holatlar oqibati hisoblangan,

javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunda mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati mutanosib ravishda ushbu hodisalar ro'y bergan muddatga orqaga suriladi

VII. Yakunlovchi qoidalar

- 7.1. Ushbu Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ular yozma shaklda rasmiylashtirilib, Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolanganidan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Mazkur Shartnomaga barcha ilovalar uning ajralmas qismini tashkil etadi.
- 7.2. Tomonlarning hech biri mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa Tomonning yozma shakldagi rozilgisiz biror-bir uchinchi tomonga berib yuborishi mumkin emas.
- 7.3. Ushbu Shartnoma ikki nusxada tuzilgan. Ikkala nusxa aynan bir xil bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega. Tomonlarning har birida mazkur Shartnomaning bir nusxasi bo'ladi.

VIII. Mazkur Shartnomaning amal qilish muddati

- 8.1. Ushbu Shartnoma ikki tomonlama imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

IX. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari

"Buyurtmachi"

Nurafshon ShTB

Manzil:Nurafshon Sh shifokorla 22-uy

INN:207331449

L/s:100022860274017073101054001

Toshkent shaxar markaziy bank XKKM

X/r:23402000300100001010.

ΦMFO: 00014._INN: 201122919

Moliya vazirligi g'aznachilik bo'limi

"Autsorser"

"CONVENIENT FOR GUESTS" MCHJ

Manzil: Toshkent viloyati Angren shahri,

Navro'z mahalla A. Yassaviy ko'chasi 121-a uy,

INN: 309387169. OKED: 56290

X/r: 20208000405506139001.

Bank: ТОШКЕНТ Ш., "ДАВР-БАНК" ХАТ БАНК

MFO:01046.



M.M.Peltabayeva



MAHAMMATQULOV J. H

HUQUQSHUNOS _____

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 62768 на приобретение Пастел белёларни тозалаб йувиш ва хизмат курсатиш

Способ проведения электронный

Дата 11.04.2022

Время рассмотрения 11.04.2022 13:37

Конкурсная комиссия Нурафшон шахар тиббиет бирлашмаси, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|------------------------------|------------------------------------|----------------------|----------------|
| Председатель комиссии | XASANOV SHUXRAT ISOMIDDINOVICH | Бош хисобчи | nurafshonshtb |
| Секретарь комиссии | NARIMOVA NIGORA XASANBAYEVNA | parhez xamshirasi | nurafshonshtb |
| Член комиссии | MURATOVA NASIBA TURSUNBAYEVNA | bosh xamshira | nurafshonshtb |
| Член комиссии | ABDULLAYEVA DILFUZA ABDUMANNOPOVNA | Касаба уюшмаси раиси | Нурафшон ш ШТБ |
| Член комиссии | PELTABAYEVA MATLUBA MULDIYAROVNA | ШТБ бошлиги | Нуафшон ш. ШТБ |
| Член комиссии | CHURATAYEVA ALIYA SAXADILLAYEVNA | bo'lim boshlig'i | nurafshonshtb |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 11.04.2022 года № лота 62768.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф. технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 14

Предмет закупки:

| Наименование товара (работы, услуги) | Услуги прачечных |
|--------------------------------------|-------------------------|
| Подробное описание | Сифатли хизмат кўрсатиш |
| Количество товара | 6 000.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 6 666.00 |
| Стартовая сумма | 39 996 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Пастел белёларни тозалаб йувиш учун захираси мавжудлиги ва техника билан таминланганлиги, Пастел белёларни тозалаб йувишни уз воқтида бажариб бериш хақида кафолат хати

Тип: Текстовое значение

Описание: Пастел белёларни тозалаб йувиш учун захираси мавжудлиги ва техника билан таминланганлиги, Пастел белёларни тозалаб йувишни уз воқтида бажариб бериш хақида кафолат хати

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|------------------------------------|-----------|--------------------|----------------|------------|------------|---------|
| ООО ISLOMBEK BEXRUZBEK | 20 | 39996000 | 17 | Экспертная | | |
| CONVENIENT FOR GUESTS MCHJ | 20 | 35010000 | 18 | Экспертная | | |
| QIBRAY ABBOSBEK BIZNES MCHJ | 20 | 5100 | 10 | Экспертная | | |
| BEST FOREVER GOLD MCHJ | 20 | 1 | 10 | Экспертная | | |

Критерий №2 Солиқ органидан солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздорлиги мавжуд эмаслиги тўғрисида маълумотнома мавжудлиги, Банкдан жартотекада турмаслиги туғрисида маълумот асл нусхаси тақдим этилиш керак ва Пастел белёларни тозалаб йувиш муддати ва пастел белюларни йувишда кетадиган махсулотлар калкулятсияси

Тип: Текстовое значение

Описание: Солиқ органидан солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздорлиги мавжуд эмаслиги тўғрисида маълумотнома мавжудлиги, Банкдан картотекада турмаслиги туғрисида маълумот асл нусхаси тақдим этилиш керак ва Пастел белёларни тозалаб йувиш муддати ва пастел белюларни йувишда кетадиган махсулотлар калкулятсияси

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|------------------------------------|-----------|--------------------|----------------|------------|------------|---------|
| ООО ISLOMBEK BEXRUZBEK | 30 | 39996000 | 27 | Экспертная | | |
| CONVENIENT FOR GUESTS MCHJ | 30 | 35010000 | 28 | Экспертная | | |
| QIBRAY ABBOSBEK BIZNES MCHJ | 30 | 5100 | 18 | Экспертная | | |
| BEST FOREVER GOLD MCHJ | 30 | 1 | 17 | Экспертная | | |

Критерий №3 Ташкилотда фаолият юритувчи ходимлар сони (Ф,И,Ш, лавозими хамда иш тажрибаси хақида тўлиқ маълумот, QR коди билан),

Тип: Текстовое значение

Описание: Ташкилотда фаолият юритувчи ходимлар сони (Ф,И,Ш, лавозими хамда иш тажрибаси хақида тўлиқ маълумот, QR коди билан), Танлов иштирокчисининг иш хақи жамғармаси ва ходимлар ўртача сони бўйича кўрсаткичлари (солиқ кумитасидан маълумотнома)

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|------------------------------------|-----------|--------------------|----------------|------------|------------|---------|
| ООО ISLOMBEK BEXRUZBEK | 20 | 39996000 | 19 | Экспертная | | |
| CONVENIENT FOR GUESTS MCHJ | 20 | 35010000 | 19 | Экспертная | | |
| QIBRAY ABBOSBEK BIZNES MCHJ | 20 | 5100 | 11 | Экспертная | | |
| BEST FOREVER GOLD MCHJ | 20 | 1 | 11 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|-----------------------------|-----------------|--------------------|------------------------|-------------------------|
| BEST FOREVER GOLD MCHJ | 39 996 000.00 | 24 000 000.00 | 08.04.2022 10:19:11 | 20.00 |
| CONVENIENT FOR GUESTS MCHJ | 39 996 000.00 | 35 010 000.00 | 06.04.2022 18:21:34 | 13.71 |
| ООО ISLOMBEK BEXRUZBEK | 39 996 000.00 | 39 996 000.00 | 06.04.2022 18:09:32 | 12.00 |
| QIBRAY ABBOSBEK BIZNES MCHJ | 39 996 000.00 | 30 600 000.00 | 07.04.2022 15:59:58 | 15.69 |

Итоговая оценка участников включая финансовый части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|-----------------------------|---------------------------------|--------------------------------|---------------|
| BEST FOREVER GOLD MCHJ | 43.2 | 20 | 63.2 |
| CONVENIENT FOR GUESTS MCHJ | 74.4 | 13.71 | 88.11 |
| ООО ISLOMBEK BEXRUZBEK | 72 | 12 | 84 |
| QIBRAY ABBOSBEK BIZNES MCHJ | 44.8 | 15.69 | 60.49 |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 62768 от 11.04.2022 года на приобретение Пастел белёларни тозалаб йувиш ва хизмат курсатиш определила победителем:

CONVENIENT FOR GUESTS MCHJ
309387169

и резервный исполнитель: ООО ISLOMBEK BEXRUZBEK (307858818)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|-----------------------|----------------------------------|-------------|-------------|
| Член комиссии | CHURATAYEVA ALIYA SAXADILLAYEVNA | Согласен | |
| Член комиссии | MURATOVA NASIBA TURSUNBAYEVNA | Согласен | |
| Председатель комиссии | XASANOV SHUXRAT ISOMIDDINOVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"CONVENIENT FOR GUESTS" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"CONVENIENT FOR GUESTS" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

18.03.2022

1113661

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

309387169

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Toshkent viloyati, Angren shahri, Ташкентская область, г.Ангрен, ул. 5
даха, дом 3, кв. 0,

Guvohnoma:

Toshkent viloyati, Angren shahri, DAVLAT XIZMATLARI
MARKAZI

tomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA
MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

№ MC37546826

1. Loyihaning turi: Shartnoma.

2. Loyihaning nomi: Shartnoma tuzish to'g'risida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Nurafshon shahar Tibbiyot birlashmasi tomonidan 35,0 mln. so'mlik, 1-sonli shartnoma tuzish to'g'risidagi loyiha 2022-yil 10-may kuni ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Markaz bosh yuriskonsulti
3-darajali yurist**



Sh.Abduvaliev